

**RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MILLIY  
IQTISODIYOTNING BARQAROR O‘SISHINI TA’MINLASH VA  
INNOVATSION RIVOJLANISH STRATEGIYALARINI  
TAKOMILLASHTIRISH HAMDA MOLIYA, BANK, TURIZM  
SOHALARIDA RAQAMLI IQTISODIYOT TAMOYILLARINI JORIY  
ETISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI**

---

*Abduraxmanova Muqaddas To‘xtasinovna*

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

*“Iqtisodiyot” Kafedrasida katta o‘qituvchisi*

*Karimbayev Jamshidbek Quvandiqlik o‘g‘li*

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

*“Iqtisodiyot” yo‘nalishi 1-kurs I-25-guruh magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada raqamli transformatsiyani mamlakatimiz sharoitida keng joriy etish va foydalanish orqali mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanishini yanada kuchli va raqobatbardosh qilish va bu kabi ijobiy natijalarga qanday qilib erishish ilgari suriladi. Mamlakatimiz sharoitida qanday qilib raqamli transformatsiya texnologiyalaridan foydalanish va bu kabi sa’y-harakatlar qanday qilib amalga oshirilishi o‘rganilgan izlanishlar bo‘yicha odamlarning fikrini bilish va shu bilan bit qatorda “Innovatsion rivojlanish strategiyalarini tuzishda raqamli texnologiyalardan foydalanish” ish jarayonlarini bir muncha osonlashtirishi, raqamli texnologiyalarning mamlakatimiz barqarorligini ta’minlashdagi o‘rni, turizm sohasida esa, “Smart turizm” loyihasini amalga oshirish orqali iqtisodiy samaradorlikni bir muncha yaxshilashko‘rib chiqildi.

**Kalit so‘zlar:** Raqamli transformatsiya, Raqamli texnologiyalar, Innovatsion rivojlantirish strategiyalari, Elektron hukumat va xizmatlar, Turizm sohasida raqamli iqtisodiyot, “SMART TURIZM”.

**Аннотация:** В данной статье предлагаются способы укрепления и повышения конкурентоспособности экономического развития нашей страны за счет широкого внедрения и использования цифровой трансформации, а также пути достижения таких позитивных результатов. Стоит отметить, что в исследовании рассматривается вопрос использования технологий цифровой трансформации в нашей стране и способов реализации подобных усилий, а также анализируется, как в некоторой степени облегчить рабочие процессы в рамках проекта «Использование цифровых технологий при создании инновационных стратегий развития», роль цифровых технологий в обеспечении стабильности нашей страны, а также, в туристическом секторе, как в некоторой степени

повысить экономическую эффективность за счет реализации проекта «Умный туризм».

**Ключевые слова:** цифровая трансформация, цифровые технологии, инновационные стратегии развития, электронное правительство и услуги, цифровая экономика в туризме, «умный туризм».

## KIRISH

Hozirgi davrda jahonda iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillaridan biri texnologik o'zgarishlar va raqamli transformatsiya jarayonlaridir. Zamonaviy texnologiyalar

- sun'iy intellekt, avtomatlashtirish, blokcheyn tizimlari, elektron tijorat va yashil texnologiyalar

- ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish hamda boshqaruv sohalarida samaradorlikni oshirish bilan birga, biznes jarayonlarini yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Shu sababli, texnologik o'zgarishlarning kichik biznes subyektlari faoliyatiga ta'sirini o'rganish bugungi kunda dolzarb masalalardan biridir.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalarni joriy etish hududiy iqtisodiyotning diversifikatsiyasiga, bandlik darajasining oshishiga, shaffoflik va samaradorlikning kuchayishiga olib keladi . Shu jihatdan, innovatsion mahsulot va xizmatlarni rivojlantirish yo'nalishlarida quyidagi ustuvor vazifalar dolzarb hisoblanadi:

- raqamli infratuzilmani kengaytirish va axborot almashinuvi tizimini takomillashtirish;
- hududiy startap va texnoparklarni rivojlantirish;
- raqamli kompetensiyalarni oshirish hamda kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish;
- davlat va xususiy sektor hamkorligida innovatsion ekotizimni shakllantirish.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalarni joriy etish nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, balki butun hududiy iqtisodiyotning diversifikatsiyasiga, bandlik darajasining ortishiga, boshqaruv jarayonlarida shaffoflik va hisobdorlikning kuchayishiga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi . Raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot texnologiyalarining joriy etilishi hududlararo iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish, resurslardan oqilona foydalanish va yangi innovatsion faoliyat turlarini shakllantirish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasida bank tizimini modernizatsiya qilish va raqamli transformatsiyani jadallashtirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilangan.

Xususan, 2020–2025-yillarga mo'ljallangan bank tizimini isloh qilish strategiyasida tijorat banklari faoliyatiga zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy

etish, masofaviy bank xizmatlarini kengaytirish, aktivlar va risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish hamda moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash asosiy vazifalar sifatida qayd etilgan . Ushbu hujjatda bank aktivlaridan foydalanish samaradorligini oshirish raqamli transformatsiyaning ajralmas tarkibiy qismi sifatida talqin qilinadi.

Raqamli transformatsiya bank aktivlarini boshqarishda nafaqat texnologik, balki institutsional va tashkiliy o'zgarishlarni ham talab etadi. Aktiv va passivlarni birgalikda boshqarish, resurslarning muddatlar va risklar bo'yicha muvofiqligini ta'minlash, kredit portfeli sifatini real vaqt rejimida monitoring qilish imkoniyatlari bank aktivlarining aylanish tezligi va daromadlilikini oshirishga xizmat qilmoqda [1]. Shu bilan birga, raqamli yechimlar bank faoliyatida shaffoflik va axborot ishonchliligini kuchaytirib, boshqaruv qarorlarining sifatini yaxshilashga imkon bermoqda .

Shu munosabat bilan, raqamli transformatsiya jarayonida tijorat banklari aktivlari samaradorligini oshirish yo'llarini ilmiy jihatdan asoslash, aktivlarni boshqarishning an'anaviy va zamonaviy usullarini solishtirish hamda O'zbekiston bank tizimi sharoitida samarali boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy vazifaga aylanmoqda .

**Raqamli transformatsiya** Bugungi globallashtirish va texnologik taraqqiyot davrida raqamli transformatsiya iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga chuqur kirib bormoqda. Raqamli texnologiyalarni keng joriy etish milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlash, raqobatbardoshligini oshirish hamda innovatsion rivojlanish strategiyalarini takomillashtirishda muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, moliya, bank va turizm sohalarida raqamli iqtisodiyot tamoyillarini qo'llash samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi. Bu kabi raqamli transformatsiyani rivojlantirish sa'y-harakatlar mamlakatimiz iqtisodiyotiga sezilarli darajada ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

**Innovatsion rivojlanish strategiyalarini tuzishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari** Raqamli transformatsiyaning global va mahalliy tendentsiyalari so'nggi yillarda iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik rivojlanishning ajralmas qismiga aylandi. Hozirgi kunda raqamli transformatsiya nafaqat rivojlangan mamlakatlarda, balki rivojlanayotgan mamlakatlarda ham keng joriy etilmoqda. Mamlakatimizda Prezidentimizning tashabbuslari bilan bir qator na'munali loyiha ishlari amalga oshirilmoqda bular **innovatsion infratuzilma sub'ektlari** (innovatsion texnologik park, texnologiyalar transferi markazi, innovatsion klaster, venchur tashkiloti, innovatsiya markazi, startap akselerator, inkubator) tarmog'ini shakllantirish orqali **startap tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash** hamda **yirik hajmli** ishlab chiqarishni ya'ni **kapital yaratish** tashkil etish;

yangi turdagi mahsulotlar va innovatsion texnologiyalar yaratishning **g'oyadan yakuniy iste'molchigacha bo'lgan kompleks tizimini ta'minlash orqali innovatsiyalarga bo'lgan talabni rag'batlantirish;**

Global miqyosda raqamli transformatsiya iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga texnologiyalarni joriy etish orqali sezilarli o'zgarishlarga olib keldi. Sun'iy intellekt (AI), katta ma'lumotlar, avtomatlashtirish va bulutli hisoblash eng katta o'zgarishlarni keltirib chiqargan texnologiyalardir. Misol uchun, 2021-yilda Amerika Qo'shma Shtatlardagi kompaniyalarning taxminan 57 foizi sun'iy intellektdan foydalanishni boshladi, bu esa ishlab chiqarish, sotish va xizmatlar sifatini yaxshilashga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. 2025-yilda esa bu ko'rsatkich sezilarli darajada oshib Amerika Qo'shma Shtatlari 94 mingga yaqin hodimini ishdan bo'shatdi.

**Raqamli transformatsiya va milliy iqtisodiyotning o'zaro bog'liqligi**  
Raqamli transformatsiya milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, ishlab chiqarish samaradorligini yuksaltirish va yangi iqtisodiy o'sish nuqtalarini yaratishning asosiy omilidir. U an'anaviy tarmoqlarni modernizatsiya qilish, elektron hukumatni rivojlantirish va YAİM o'sishini tezlashtirish orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi.

**Raqamli transformatsiya va milliy iqtisodiyotning o'zaro bog'liqligi quyidagilarda namoyon bo'ladi:**

**Samaradorlik va Innovatsiya:** Raqamli transformatsiya bank va moliya tizimlaridagi axborot almashinuvlarini osonlashtiradi natijada esa samaradorlik oshadi. bu vaqtning tejalishiga olib keladi va ish unumdorligini oshiradi. Raqamli transformatsiya va milliy iqtisodiyotning o'zaro bog'liqligi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, innovatsion iqtisodiy o'sish, mehnat bozorini modernizatsiya qilish va boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirishda namoyon bo'ladi. Bu jarayon raqamli texnologiyalarni barcha tarmoqlarga joriy etish orqali mamlakat raqobatbardoshligini ta'minlaydi<sup>1</sup>.

Raqamlashtirish konsepsiyasi ilg'or raqamli texnologiyalarni iqtisodiyotning turli jabhalariga integratsiyalashni o'z ichiga oladi, bu davlat xizmatlaridan tortib xususiy sektor operatsiyalarigacha. Shuningdek, u yuqori samaradorlikni oshirishga va innovatsiyalar uchun qulay muhitni yaratishga xizmat qiladi. Madaniy merosga va resurslarga ega O'zbekiston uchun iqtisodiyotni raqamlashtirish kuchli tomonlardan foydalanish va taraqqiyotga erishish uchun mislsiz imkoniyatdir<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> <https://cedr.uz/2025/11/20/milliy-iqtisodiyotni-innovatsion-sharoitiga-otish-davrida-raqamli-transformatsiya-va-zamonaviy-mehnat-bozori-mavzusidagi-respublika-ilmiy-amaliy-konferensiyasi/>

<sup>2</sup> <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

**Elektron Hukumat va Xizmatlar:** Banklardagi to'lov tizimlari va raqamli pul tranzaksiyalarini samarali amalga oshirishga yordam beradi, shaffoflikni ta'minlaydi, yashirin iqtisodiyotni bir muncha kamayishiga asos bo'ladi.

Tarkibiy o'zgarishlar: mamlakatimizda IT sektorlari bir muncha rivojlanadi va ayrim past darajada rivojlanayotgan raqamli transformatsiya yo'nalishlari bir muncha rivojlanadi.

Raqamli ko'nikmalar va resurslar: insonlarning raqamli axborot bilan bog'liq sohalarini o'rganishga bo'lgan talabining ortishiga sabab bo'ladi va mamlakatimizning rivojlanishiga yana bir amaliy yo'nalish bo'lib hisoblanadi.

### **Turizm sohasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish**

Turizm hozirda jahon iqtisodiyotining eng yirik va istiqbolli tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Bu ish o'rinlari yaratishda, ko'p sonli mamlakatlarning eksport tushumlarida, yalpi ichki mahsulotga umumiy hissada muhim rol o'ynaydi. Mavjud siyosiy tafovutlar, sanksiyalar, mintaqaviy nizolar, xalqaro sayyohlik yo'nalishlari soni yil sayin barqaror o'sib bormoqda. Bu kabi ziddiyatlar esa turizm sohasining rivojlanishiga sa'lbiy ta'sir ko'rsatishi turgan gap. Misol uchun bu kabi iqtisodiyotdagi "shok holatlar" jahon bozoriga o'zta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi, bu esa o'z navbatida yoqilg'i bahosini, oziq-ovqat bahosini va yana bir nechta faktorlar bahosini keskin tarzda o'sishiga olib keladi, bu esa ekskursiya uchun kelayotgan turistlar uchun ortiqcha muammo chiqim bo'lishi mumkin.

Bunday sharoitda turizm sohasini masofadan turib avtomatlashtirish ya'ni "SMART TURIZM" formatiga o'tkazish bir muncha afzallik keltiradi.

### **Turizm sohasini yangicha texnologiyalar bilan avtomatlashtirish**

Smart-turizmning asosiy maqsadi – raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt (AI), IoT (Internet of Things) va katta ma'lumotlar (Big Data) yordamida turistik jarayonlarni avtomatlashtirish va optimallashtirishdir. Ushbu yondashuv turistlar uchun xizmatlarni shaxsiylashtirish, rezervatsiya va transport jarayonlarini tezlashtirish, turistik obyektlar va resurslarni samarali boshqarish imkonini beradi. Raqamli texnologiyalar orqali turistlar yo'nalishlar bo'yicha tavsiyalar olishlari, xizmatlarni onlayn tarzda buyurtma qilishlari va shaxsiy ehtiyojlariga mos xizmatlardan foydalanishlari mumkin. Shu bilan birga, mehmonxonalar, transport kompaniyalari va sayyohlik agentliklari raqamli yechimlar yordamida operatsion samaradorlikni oshiradi, xodimlarning ish yukini kamaytiradi va xizmat sifatini yaxshilaydi. (AI) yordamida mijozlar fikrini bilish, ularga turistik zona haqida ma'lumotlarni talqin qilish bir muncha qulayliklar tug'diradi. Rezervatsiyani tashkil etish esa interaktiv xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq muammolarni yengillashtiradi. Transport vositalariga chegirmalar e'lon qilish esa turistlarning yanada bu xizmatlardan ko'p foydalanishiga olib keladi, bu esa davlat budjetiga qo'shimcha tushumni ta'minlaydi.

Quyidagi jadvalda raqamli qurilmalarning turistik zonalar uchun afzalliklari keltirilgan.

### 1-jadval. Turizm sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etish.<sup>3</sup>

Texnologiya	Foydalanish sohasi	Afzalliklari
<b>Sun'iy intellekt (AI) dasturlari</b>	Turistlar fikrini va talabini o'rganish	Tezkor qarorlar qabul qilish, ularning ehtiyojini qondirish
<b>Mobil ilovalar</b>	Yo'nalish va rezervatsiya	Inetraktiv xizmatlar, mijozlar qulayligi
<b>(IoT)qurilmalari</b>	Xona va transport vositalari xavfsizligi	Qulayliklar yaratib berish va elektr-energiyani etjash

### Raqamli transformatsiyani rivojlantirishda Tijorat banklari va moliyaviy tizimlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar:

Banklarda raqamli transformatsiya mijozlarga tez va samarali hizmat ko'rsatishni ta'minlaydi.

Onlayn banklarni tashkil etish bu mijozlarni qulay platformalar bilan ta'minlaydi va bu platforma orqali raqamli pul o'tkazmalari yanada osonlashadi. Bu kabi banklarni an'anaviy banklar bilan solishtirganda an'anaviy banklardan anchagina qulayliklarga ega. bunday banklar o'z mijozlariga xizmatlarini internrt oqali taqdim etadi, bu esa ortiqchga sarf-xarajatlarni (transport, vaqt isrof bo'lishi) va muammolarni kamaytiradi.

### Raqamli banklar va ulardan foydalanishning afzalliklari

Raqamli banklar va ulardan foydalanishning asosiy afzalliklaridan biri-mijozning ishlarini tezlashtirish ya'ni mijoz kredit olish uchun raqamli banklarda 10-15 minut sarflasa, an'anaviy banklarda esa bu kunlarni o'z ichiga olishi mumkin va bu o'z navbatida ko'p vaqt va kutishni o'z ichiga oladi. raqamli banklarda esa buning aksi. Bank.uz sayti ma'lumotlariga ko'ra O'zbekistondagi Banklarning fuqarolar uchun quyidagicha foydali bo'lgan o'z ilovalarini ishlab chiqdi.

Bular quyidagicha reytingga ega:

O'rni	Ilova nomi	Qaysi bankka tegishli ekanligi
1	<i>Uzum bank</i>	<i><u>Kapitalbank</u></i>
2	<i>Ipak Yo'li</i>	<i><u>Ipak Yo'li Bank</u></i>
3	<i>Milliy</i>	<i>NBU</i>

<sup>3</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqildi

4	<i>Zoomrad</i>	<i>Aloqabank</i>
5	<i>Joyda</i>	<i>Uzsanoatqurilishbank</i>
6	<i>InfinBANK</i>	<i>Infinbank</i>

### **2-jadval. O'zbekiston banklari eng yaxshi mobil ilovalari reytingi<sup>4</sup>**

#### ***Xavfsizlik va Kamchiliklar***

Raqamli texnologiya va transformatsiya rivojlangan bir paytda bu rivojlanish o'zining ijobiy va salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda moliyaviy tizimlarning virtuallashuvi natijasida raqamli banklar mijozlarga tezkor va qulay xizmatlarni taklif etishi bilan bir qatorda ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlashda bir qator muammolarga duch kelmoqda.

Accenture kompaniyasining empirik ma'lumotlariga ko'ra raqamli banklar o'z xavfsizligini ta'minlash uchun kiberxavfsizlik choralari sarflanadigan mablag'larning 140% ga oshirgan, shunday bo'lsada 54% banklar uchinchi tomondan kiberhujumga uchrayotganligi ma'lum. mijozlarning kredit tarixi, bank raqami, shaxsiy pul mablag'lari, tranzaksiya tarixlariga bo'lgan kiberjinoyatlar kundan-kunga ortib bormoqda. Kiberjinoyatchilar xavfsizlikning zaif tomonlaridan foydalanib bu ishni amalga oshirmoqdalar. Ular buni murakkab usullardan foydalanib ma'lumotlar bazasini eksplutatsiya qilishmoqda.

An'anaviy xavfsizlik tizimlari va qoidalarga asoslangan yondashuvlar (rulebased approaches) zamonaviy tahdidlarni aniqlab, ularga tezkor javob berish imkoniyatini fundamental darajada cheklab qo'ymoqda. Bu sharoitda sun'iy intellekt (SI) va mashinali o'rganish (machine learning) texnologiyalari bank ma'lumotlari xavfsizligini ta'minlashda innovatsion paradigma sifatida rivojlanmoqda<sup>5</sup>.

Raqamli banklarning kamchiliklarida biri-jismoniy filiallarga ehtiyoj sezmasligi va mijozning tushunmovchiligiga sabab bo'lishi mumkin. ayniqsa raqamli texnologiyalardan foydalana olmaydigan yoshi katta insonlar uchun birmuncha noqulayliklar tug'dirishi mumkin. Quyidagi jadvaldan raqamli banklarning afzalliklari va kamchiliklarini ko'rib olishimiz mumkin.

### **3-jadval. Raqamli banklarning afzalliklari va kamchiliklari<sup>6</sup>.**

<i>Afzalliklari</i>	<i>Kamchiliklari</i>
<i>Operatsiyalarning tezkorligi</i>	<i>Internet tarmoqlari bilan bog'liq uzilishlar</i>

<sup>4</sup> [https://bank.uz/uz/app\\_rating/](https://bank.uz/uz/app_rating/)

<sup>5</sup> Internet ma'lumotlari asosida yozildi

<sup>6</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqildi

<i>Kam foizli xizmat ko'rsatish</i>	<i>Katta yoshdagilar uchun yangi texnologiyani o'rganishning qiyinligi</i>
<i>Yuqori darajadagi maxfiylik</i>	<i>Kiberxavfsizlik xatarlarining mavjudligi</i>

### **O'zbekistondagi Raqamli Banklar**

O'zbekistondagi raqamli banklarning ulushi 2025-yilda 50% ga yetdi bu ko'rsatgich 2024-yilnikidan 20% ga ortganini bildiradi. 2026 -yilda esa bu ko'rsatgich yanada ortishi kutilmoqda. Bundan tashqari O'zbekistondagi tijorat banklarining aholi tomonidan amalga oshirilayotgan transferlari ham yildan-yilga ortayotganini ko'ramiz, bu esa mamlakatimiz iqtisodiyotiga sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatadi. 2025-yilning birinchi choragida O'zbekiston tijorat banklari 3,4 trln so'm sof foyda oldi. Bu 2024-yilning mos davriga nisbatan 1 trln so'mga yoki 41,7% ga ko'proq hisoblanadi.


#### **Davlat banklari**

Davlat ulushi mavjud banklar 2025-yilning ilk choragida 1,2 trln so'm sof foyda olgan. Bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 685 mlrd so'mga yoki 122,7% ga ko'proq deganidir. Davlat banklarining barchasi chorakni foyda bilan yakunlagan. Yuqorida aytilganidek, barcha banklar (shu jumladan davlat banklari) orasida eng ko'p sof foydani O'zmilliybank (468 mlrd so'm) va O'zsanoatqurilishbank (404 mlrd so'm) olgan. 2024-yilning mos davri bilan taqqoslaganda uchta bank sof foydasida sezilarli pasayish kuzatilgan. Bular Agrobank (-49,4%), Asakabank (-75,8%) va Turonbanklar (-38,2%) hisoblanadi. Shuningdek, foiz hisobida Aloqabank (+381%), Mikrokreditbank (+277%) va Biznesni rivojlantirish bankida (+150%) ijobiy o'sish qayd etilgan. Ma'lumot uchun, Biznesni rivojlantirish banki 2024-yil birinchi choragini 394 mlrd so'm zarar bilan yakunlagandi. 2025-yilning ilk uch oyini esa bank 196 mlrd so'mdan ko'proq sof foyda bilan tugatdi. Eng ko'p sof foyda olgan 10 ta bankning 3 tasi davlat banklari hisoblanadi. Xususan, O'zmilliybank va O'zsanoatqurilishbank eng ko'p sof foyda olgan banklar hisoblanadi<sup>7</sup>.

### **1-diagramma. O'zbekiston tijorat banklarining foydasi yillar kesimida.<sup>8</sup>**

<sup>7</sup> <https://kapital.uz/uz/tijorat-banklari-foydasi/>

<sup>8</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqildi.



### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Lavrushin O.I. Bank ishi: zamonaviy kredit tizimi: Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliyaviy akademiya. 4nashr, stereotip. – M.: KNORUS, 2008. – B. 36–37.